

YAPON TILIDAGI RAD ETISH IFODALARINING TAHLILI

Abduhamidova Dilafruz¹

Sharapova Xurshida²

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

KEYWORDS

bevosita rad etish, bilvosita rad etish, madaniy tafovut, til o'rganuvchilar, muloqot madaniyati.

ABSTRACT

Ushbu tadqiqotning maqsadi – yapon tilidagi bilvosita rad etish ifodalarini o'zbek tilida so'zlashuvchi yapon tilini o'rganayotganlar uchun qanday murakkabliklarni keltirib chiqarishini aniqlashdir. Yapon tilida muloqotda qarshingizdagiga e'tibor berish muhim bo'lgan madaniy muhitda noaniq va bilvosita rad etish iboralari ko'p ishlatiladi. Boshqa tomondan, o'zbek tilida esa rad etish odatda aniq va to'g'ridan-to'g'ri ifodalanadi.

Ushbu tadqiqotda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabalari o'rtasida so'rovnoma o'tkazilib, buyruq, iltimos va taklif vaziyatlaridagi rad etish ifodalarini qanday tushunishlari tahlil qilindi. Natijada, o'rganayotganlarning ko'pchiligi ma'lum bir darajada tushunishga ega bo'lishiga qaramay, noaniq iboralar ko'pincha noto'g'ri talqin qilinayotganligi aniqlandi. Bu esa yapon tilini o'qitishda pragmatik bilim va madaniy asoslarni o'rgatish muhimligini ko'rsatdi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15564773**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish

Rad etish ifodalari gapiruvchining niyati va shaxslararo munosabatni yetkazishda muhim pragmatik vosita bo'lib, bu ifodalar madaniy muhitga qarab keskin farq qiladi. Yapon tilida shaxslararo aloqalarni silliq saqlash uchun bilvosita va noaniq rad etish iboralari tez-tez qo'llaniladi (Nakatani, 2006).

- “Yapon tilidagi e'tiborli til xatti-harakati ko'p so'zlarga tayanmasdan, andozaviy iboralar orqali suhbatdoshdan xulosa chiqarishni kutish, ya'ni “sassi ai” xususiyati bilan ajralib turadi. Bu holat yuqori kontekstli madaniyatga xos bo'lgan “sassi madaniyat”ni aks ettiradi. “Sassi ai” bu – ochiqchasiga rad etmay, vaziyat yoki aytilmagan ma'nodan kelib chiqib, suhbatdoshning o'zi anglashini kutishdir. Masalan,

¹ Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qtuvchisi Yaponshunoslik fakulteti

² Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 3-kurs talabasi Yaponshunoslik fakulteti

“Bugun biroz...” yoki “Majlisim bor...” kabi noaniq iboralardan foydalanib, bevosita rad etishdan qochib, rad qilish maqsadi yetkaziladi” (Takahashi, 2019, b.162).

Boshqa tomondan, o‘zbek tilida ochiq va aniq ifoda afzal ko‘riladi, gapiruvchi o‘z fikrini “Yo‘q”, “Bo‘lmaydi”, “Qila olmayman” kabi aniq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘zlar bilan bildiradi. Bu xususiyat ayniqsa rasmiy yoki ijtimoiy muloqotda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ushbu farq madaniyatlararo muloqotda tushunmovchilik yoki ziddiyatga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar uchun yapon tilidagi bilvosita rad etish ifodalarini tushunish va ishlatish murakkab hisoblanadi (Beebe et al., 1990).

Shu sababli, ikki tilning rad etish iboralari o‘rtasidagi farqni solishtirish orqali madaniy omillarning ta‘sirini ochib berish yapon tili ta‘limi va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.

Ilgari o‘rganilgan tadqiqotlar

Aidaeva Zarifa (2022) tomonidan o‘tkazilgan “Yapon va Ozarbayjon tillarida rad etish usullari” nomli tadqiqotda, yapon tilida bilvosita rad etish ishlatilishi, Ozarbayjon tilida esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri va sababli rad etish afzal ko‘rilishi aniqlangan.

Rad etish usullari jamiyat va madaniyat qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yapon tilidagi bilvosita ifodalar e‘tiborni talab qiluvchi jamiyatlarda ishlatiladi. Aksincha, Ozarbayjon tilida fikrni ochiq ifoda qilishga urg‘u beriladi, bu esa yaponcha muloyim rad etishni tushunishni qiyinlashtiradi.

Rad etish farqlarini tushunmasdan muloqot qilish – noqulaylik, noto‘g‘ri tushunish yoki beodoblik bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, Ozarbayjonlik o‘rganuvchilar uchun yapon tilidagi tabiiy rad etishni o‘zlashtirish qiyin bo‘lib, noto‘g‘ri tushunish ehtimolini oshiradi.

Shuning uchun, yapon tilini o‘rgatishda rad etish usullarini Ozarbayjon tili bilan taqqoslab o‘rgatish muhimdir. Masalan, “Kechirasiz, biroz...” kabi ifodalarni amaliy misollar orqali tushuntirish, Ozarbayjon tilida keng tarqalgan iboralar bilan solishtirish o‘rganish samaradorligini oshiradi.

Muammoning qo‘yilishi

Aidaeva Zarifa (2022) o‘z tadqiqotida yapon va Ozarbayjon tillarida rad etish usullarini tahlil qilgan, lekin bu faqat Ozarbayjon tili bilan cheklangan va boshqa turkiy tillar, ayniqsa o‘zbek tili bilan solishtirma tadqiqot qilinmagan.

Tadqiqotning yo‘nalishi

Ushbu tadqiqot yapon tilidagi bilvosita rad etish iboralariga e‘tibor qaratib, ularni o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar qanday tushunishini aniqlashga qaratilgan. Maqsad – ushbu ifodalarning qanchalik tushunilishi va madaniy farqlar sababli qanday noto‘g‘ri tushunishlar yuzaga kelishini aniqlashdir. Tadqiqot Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabalari o‘rtasida so‘rovnomaga o‘tkazish orqali amalga oshirildi.

Umumiy reja

Tadqiqotda avval yapon tilidagi rad etish ifodalariga oid nazariy manbalar tahlil qilinib, keyin o‘zbek talabalari orasida so‘rovnomaga o‘tkazilib, ularning tushunish darajasi va duch kelayotgan qiyinchiliklari aniqlanadi.

2. Asosiy qism

2.1 Yapon tilida bilvosita rad etish ifodalarini tushunish va madaniy asos

Rad etish ifodalari — gapiruvchi rad etish niyatini bildiradigan muhim pragmatik vosita bo'lib, ularning ishlatilish shakli til madaniyatiga qarab sezilarli farq qiladi. Ayniqsa, madaniyatlararo muloqotda bu farqlar tushunmovchilik va shaxslararo nizolarga sabab bo'lishi mumkin.

Yapon tilini ona tili sifatida so'zlovchilar, suhbatdoshining obro'sini saqlab qolish (face-saving) uchun, ko'pincha aniq bayon qilmasdan, bilvosita uslubda ifodalash strategiyasini qo'llaydilar (Frontiers in Psychology, 2022).

Yapon jamiyatida shaxslararo uyg'unlik va e'tiborga katta ahamiyat berilishi tufayli, rad etish niyati to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita va noaniq tarzda ifodalanadi. Bu esa "havo o'qish" (空気を読む - vaziyatni fahmlash) zarurligiga asoslangan jamiyat qadriyatlariga bog'liq bo'lib, keskin rad etishdan ko'ra muloyim, bilvosita ifodalar ijtimoiy jihatdan afzal ko'riladi. Bunday nutq harakati shunchaki til tanlovi emas, balki ijtimoiy qoidalar va madaniy qadriyatlarga asoslangan "xatti-harakatlarning marosimlashtirilishi" hisoblanadi (Kasper & Blum-Kulka, 1993).

Boshqa tomondan, o'zbek tilida esa ochiqlik va qat'iy fikr bildirish insonlararo ishonchni shakllantirishga xizmat qiladi, shuning uchun rad etishda ham to'g'ridan-to'g'ri va aniq ifoda ustunlik qiladi.

Ushbu madaniy qadriyatlar farqi — yapon tilini o'rganayotgan o'zbek tilida so'zlashuvchilar uchun bilvosita rad etish iboralarini tushunishda va ishlatishda muammolarni yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy e'tibori — ikki turli madaniyat asosidagi tillarda rad etish iboralarining ishlatilishidagi o'xshashlik va farqlarni ochib berishga qaratilgan. Ayniqsa, yapon tilidagi bilvosita iboralarini o'zbek tilida so'zlashuvchilar qanday qabul qilishlari va ishlatishlarini aniqlash — til o'rgatish va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishda foydali bo'lishi mumkin.

2.2 Yapon tilidagi bilvosita rad etish ifodalari bo'yicha o'rganilganlar so'rovi

Aidaeva Zarifa (2022) yapon va ozarbayjon tillaridagi rad etish ifodalarini kontrastiv uslubda tadqiq qilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yapon tilida "すみませんが..." (kechirasiz, lekin...) yoki "ちょっと難しいです" (bu biroz qiyin) kabi noaniq, bilvosita iboralar qo'llanadi.

Ozarbayjon tilida esa rad etish aniq, to'g'ridan-to'g'ri bo'lib, ko'pincha batafsil izohlar bilan birga ifodalanadi.

Tadqiqot madaniy qadriyatlarning rad etish shakllariga ta'siriga e'tibor qaratgan bo'lib, ikki tildagi nutq egalarining ishlatish odatlari o'rtasidagi farqlar orqali tushunmovchilik sabablari tahlil qilinadi. Shuningdek, yapon tilidagi bilvosita ifodalar e'tiborli ijtimoiy muhit natijasi sifatida shakllanib, ochiq bayon qilishni afzal ko'radigan ozarbayjonliklar uchun qiyin tushunarli ekanligi aniqlangan.



Ushbu tadqiqotda Aidaeva ishining natijalari va boshqa tegishli adabiyotlar asosida tuzilgan so'rovnoma qo'llanildi. So'rovnoma Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining yapon tili bo'yicha mutaxassislik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalari o'rtasida o'tkazildi. Unda

o'zbek va yapon tillarida rad etish ifodalarining ishlatilish holati va bu ifodalarga bo'lgan munosabat o'rganildi.

2.3 Yapon tilidagi bilvosita rad etish ifodalarini tushunish bo'yicha so'rov

So'rovda yapon tilini o'rganayotgan taxminan 10 nafar talaba qatnashdi. Unda rad etish ifodalarining ishlatilishi va tushunilish darajasiga e'tibor qaratildi. Savollar buyruq, taklif, iltimos kabi holatlardagi ifodalarga oid bo'lib, talabalar ushbu vaziyatlarda rad etish bo'lganmi yoki yo'qligini aniqlashlari kerak edi.

1- rasm: "Do'stingiz sizni 'Shanba kuni kino ko'rishga boramizmi?' deb taklif qilsa, siz esa borishni xohlamasangiz, qanday javob sizga tabiiy tuyuladi?" degan savol natijalari.




➤ Javoblarga ko'ra, o'zbek tilida so'zlashuvchi yapon tili o'rganuvchilarning 83.3% "Kechirasiz, o'sha kuni bir oz rejam bor edi..." degan bilvosita rad etish ifodasini tabiiy deb hisobladi.

"Bormoqchi emasman" kabi to'g'ridan-to'g'ri ifodani tanlaganlar 16.7%ni tashkil etdi.

Bu esa yapon tilidagi bilvosita, yumshoq rad etish iboralari qisman tushunilayotganini ko'rsatadi.

2- rasm: "Do'stingiz sizdan 'Ertaga ko'chishga yordam bera olmasanmi?' deb so'radi. Siz esa band bo'lsangiz, qanday qilib rad qilasiz?" degan savol natijalari:

- ごめん、明日はちょっと都合が悪くて...
- 無理。忙しい。
- 手伝いたいけど、できないんだ。
- 他の日なら大丈夫だけど。




- Natijalarga ko'ra, eng ko'p tanlangan javob – “Bo'lmaydi. Bandman.” Bo'lib, 44.4%ni tashkil etdi.

“Yordam bermoqchiman, lekin qo'limdan kelmaydi.” Va “Boshqa kuni bo'lsa bo'lardi.” Degan ifodalar har biri 22.2%ni tashkil etdi.

“Kechirasiz, ertaga biroz noqulay...” degan bilvosita ibora faqat 11.1% tanlandi. Bu esa o'rganuvchilarning yapon tilidagi noaniq iboralarni yetarlicha tushunmasliklarini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, “Nega ushbu javobni tanladingiz?” degan savolga javob berganlarning 85.7% “Muloyimlik bilan rad etish uchun” deb javob bergan. Boshqalar (14.3%) esa “Tushunmadim” deb javob bergan.




2.4 Yapon tilini o'rganayotganlarning bilvosita rad etishni tushunish darajasi

Ushbu so'rovnomada yapon tilini o'rganayotganlarning bilvosita rad etish ifodalarini qay darajada tushunishini aniqlashga qaratilgan. So'rovda buyruq, iltimos va taklif holatlarida bilvosita rad etish mavjudligini aniqlovchi savollar bo'lgan.

3- rasm: "Boshliq: 'Bu hujjatni hoziroq topshiring.'

Xodim: 'Kechirasiz, bugun ichida bu biroz qiyin bo'lsa kerak...'

Bu javob buyruqni rad etayotganini bildiradimi?" savolining natijasi:




➤ Javob berganlarning 80% bu javob rad etishni anglatadi deb to'g'ri baholagan, 20% esa noto'g'ri ravishda rad etilmagan deb javob bergan.

4- rasm: "O'qituvchi: 'Ushbu varaqalarni tarqatib bera olasanmi?'

Talaba: 'E-e... qo'llarim band, keyinroq bo'lsa bo'ladimi?'

Bu javob iltimosni rad etyaptimi?" savolining natijasi:




➤ Javob berganlarning 40% bu javob rad qilishni bildiradi deb to'g'ri anglagan, 60% esa noto'g'ri tushungan.

5- rasm: "Do'st: 'Hafta oxiri birga sayohatga chiqaylik.'

Siz: 'Qiziqarli, lekin rejam bor edi...'

Bu javob taklifni rad etyaptimi?" savolining natijasi:



➤ Javob berganlarning 80% bu javob rad qilishni bildiradi deb to'g'ri baholagan, 20% esa noto'g'ri tushungan.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik talaba takliflarga nisbatan bilvosita rad etishni to'g'ri anglaydi. Ammo iltimos va buyruqlarga kelganda, tushunmovchiliklar ko'proq uchraydi.

Umuman olganda, so'rov natijalari ko'rsatmoqda: yapon tilini o'rganayotganlarning aksariyati bilvosita rad etish iboralarini qisman to'g'ri tushunadi. Ammo ifoda qanchalik noaniq bo'lsa, noto'g'ri tushunish ehtimoli ham shunchalik oshadi. Shu boisdan, yapon tilini o'rgatishda madaniy asosli pragmatik bilimlarga urg'u berish zarur.

3. Xulosa

Ushbu tadqiqot yapon tilidagi bilvosita rad etish ifodalarini o'zbek tilida so'zlashuvchi o'rganuvchilar qanday tushunishini va ular duch keladigan qiyinchiliklarni tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilida rad etish odatda ochiq va to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladi.

Yapon tilida esa rad etish odatda bilvosita va yumshoq bo'ladi.

So'rovnomalarda 70–80% talaba yapon tilidagi bilvosita rad etish ifodalarini to'g'ri tushungan bo'lsa-da, 20–30% talaba noto'g'ri baholagan yoki ikkilanib qolgan. Bu holat til tajribasi, madaniy sezgirlik va kontekstni tushunish qobiliyati kabi omillar bilan bog'liq.

Shu sababli, yapon tilini o'rgatishda grammatik va lug'aviy bilimdan tashqari, rad etish ifodalarida mujassam bo'lgan madaniy va pragmatik elementlarni tizimli tarzda o'rgatish lozim.

To'g'ri ifodalarni tanlash va joyida qo'llash orqali samarali muloqotga erishiladi.

Yakuniy natijalar

Ushbu tadqiqot yapon tilidagi bilvosita rad etish ifodalarining qanday qo'llanishini hamda ularni o'zbek tilida so'zlashuvchilar qanday tushunishini aniqladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'pchilik o'rganuvchi bilvosita ifodalarni ma'lum darajada tushunadi. Biroq ayniqsa noaniq ifodalar ularni chalg'itishi mumkin. Nakatani (2006) bilvosita rad etish ifodalarining insonlararo aloqalarni yumshatish maqsadida qo'llanilishini ta'kidlaydi va ushbu tadqiqot uning fikrini qo'llab-quvvatlaydi.

Masalan, "Kechirasiz, biroz..." yoki "Bugun qiyin bo'lishi mumkin..." kabi iboralar oddiy rad qilishdan ko'ra ko'proq muloyimlik va e'tiborni o'zida mujassam qiladi. Biroq bu niyatni to'g'ri tushunish uchun oddiy til bilimlari yetarli emas, balki madaniy bilimlar ham kerak.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, 70–80% o'quvchi ushbu ifodalarni to'g'ri anglagan, ammo 20–30% noto'g'ri tushungan.

Bu esa til o'rgatishda faqat lug'at emas, balki madaniyatga oid tushunchalarni ham o'rgatish zarurligini ko'rsatadi.

Kelgusida esa real suhbat ma'lumotlari yoki rolda o'ynash (rol o'yinlari) orqali amaliy tajriba asosida yangi metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi mumkin.

Mazkur tadqiqotda o'rganilganlarning tushunish darajasi faqat so'rovnoma orqali baholandi, ammo bu haqiqiy hayotiy suhbatlardan farq qilishi mumkin.

Shu sababli, kelajakda rolda o'ynash va real suhbatlar asosida o'rganuvchilarning pragmatik

ko'nikmalarini yanada aniqroq baholash kerak bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot asosan tushunish darajasini tahlil qilgan. Kelgusida madaniy kontekstni inobatga olgan o'quv materiallari ishlab chiqilishi zarur. Ayniqsa, bilvosita ifodalarni to'g'ri qo'llashni o'rgatuvchi metodika muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beebe, L. M., Takahashi, T., & Uliss-Weltz, R. (1990). Pragmatic transfer in ESL refusals. In Scarcella, R. C., Andersen, E. S., & Krashen, S. D. (Eds.), *Developing communicative competence in a second language* (pp. 55–73). Newbury House.
2. *Frontiers in Psychology* (2022). The role of politeness and face-saving strategies in Japanese indirect refusals. [Online journal]
3. Kasper, G., & Blum-Kulka, S. (Eds.). (1993). *Interlanguage pragmatics*. Oxford University Press.
4. Nakatani, Y. (2006). Developing an oral communication strategy inventory. *The Modern Language Journal*, 90(2), 151–168.
5. Aidaeva, Zarifa. (2022). 日本語とアゼルバイジャン語で「断り方」の分析研究.
6. 高橋 美保. (2019). 日本語における配慮表現と「察し」の文化. 『言語文化研究』, 25, 160–168.